SURXONDARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI





# SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

*2022- YIL YANVAR-AVGUST (DASTLABKI MA'LUMOT)*



# Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-avgust oyida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-avgust oyida Viloyat korxonalari tomonidan 4203,0 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 86,5 % ni tashkil etdi.

| 2,6 % | 86,5 % | 9,1 % | 1,8 % |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust |
|---|---|---|
| B | 49,6 % | 45,3 % |
| C | 111,0 % | 105,8 % |
| D | 125,4 % | 152,8 % |
| E | 81,9 % | 113,1 % |

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning – 52,8 % ga hamda ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 5,8 % ga o‘sishi kuzatildi.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**Yanvar-avgust**

2022- yil
108,3 mlrd. so‘m

2022- yil
45,3 %

2021- yil
123,7 mlrd. so‘m

2021- yil
49,6 %

2020- yil
141,7 mlrd. so‘m

2020- yil
82,1 %

*Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 108,3 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,6 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

2021- yil
3,6 %

2022- yil
2,6 %

Yanvar-avgust

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Ko‘mir, ming t.** | 185,3 | 167,8 | -17,5 |
| **Neft, ming t.** | - | 56,7 | 56,7 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Qattiq tuz, ming t.** | 15,3 | 15,1 | -0,2 |
| **Chaqiq tosh, ming t.** | 54,5 | 45,5 | -9,0 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat




*2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3635,8 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,5 % ini tashkil etdi.*

**2021- yil yanvar-avgust** 88,0 %

**2022- yil yanvar-avgust** 86,5 %

*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2021- yilning yanvar-avgust oylarida – 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (0,4 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 22,8 % (22,5 %) va quyi texnologiyalisi – 62,8 % (64,9 %)ni tashkil etdi.*



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish, ta’mirlash va o‘rnatish, avtotransport vositalari, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 5,7 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 128,5 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 1,1 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 74,5 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 38,7 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm ndeksi 97,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 20,1 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,9 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,8 % (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,3 %)ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*





















*2022- yilning yanvar-avgust oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 9,0 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 30,7 % ga kamaygan), 12,5 ming tonna boshqa guruhlarga kiritilmagan suyuq neft yoqilg'isi (mazut) (35,7 % ga kamaygan) 1,3 ming tonna lint (68,0 % ga kamaygan), 42,5 ming tonna neft bitumi (0,7 % ga ko'paygan) hamda ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.*

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 13,0 | 9,0 | -4,0 |
| **Paxta tiviti (lint), ming t.** | 3,9 | 1,3 | -2,6 |
| **Neft bitumi, ming t.** | 42,2 | 42,5 | 0,3 |
| **Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.** | 76,9 | 72,3 | -4,6 |
| **Saryog', t.** | 0,7 | 0,8 | 0,1 |
| **O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.** | 2,3 | 2,1 | -0,2 |

## Metallurgiya sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida metallurgiya sanoati ulushi 1,7 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 0,3 m. ga o'sgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 1,1 % ni, fizik hajm indeksi esa, 74,5 % ni tashkil etib va ishlab chiqarish hajmi 47,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 7,4 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 116,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,0 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 110,5 % ga kaavgustgan va ishlab chiqarish hajmi 295,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,8 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 101,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 19,5 % ni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,0 % ga ko'paygan va ishlab chiqarish hajmi 821,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 79,2 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga koʻra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni tashkil etdi, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 80,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 22,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*




## Toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yilning yanvar-avgust oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,6 % ni tashkil etgan boʻlsa, uning fizik hajm indeksi 113,9 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida toʻqimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 34,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 102,9 % ga oʻsgan boʻlsa, ishlab chiqarish hajmi 1460,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga koʻra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,8 % ni, fizik hajm indeksi esa 115,4 % ni tashkil etgan boʻlsa, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,9 %, fizik hajm indeksi 65,7 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 165,2 mlrd. soʻmni tashkil etdi.*



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 93,1 % ni tashkil etgan. Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 118,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 15,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




*2021- yilning yanvar-avgust oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 101,4 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni, fizik hajm indeksi 98,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 359,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-avgust oylari yakuniga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 187,3 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-avgust oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 83,2 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 18,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 382,0 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,1 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 156,7 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 141,0 | 206,9 | 65,9 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 24,4 | 23,8 | -0,6 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 76,9 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,8 % ini) tashkil etdi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-avgust | 2022- yil yanvar-avgust | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 3,9 | 3,1 | -0,8 |
| **Boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar, *mlrd. so‘m*** | 15,5 | 19,7 | 4,2 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar 39,9 mlrd. so‘m, oqova suvlarini yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 3,1 mlrd. so‘m shuningdek, 19,7 mlrd. so‘m boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo‘qotish bo‘yicha xizmatlar ishlab chiqarildi.

# Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1545,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,9 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 36,8 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021- yil yanvar-avgust** — **45,0 %**

**2022- yil yanvar-avgust** — **45,8 %**

## Noozik-ovqat mahsulotlar

**2021- yil yanvar-avgust** — **55,0 %**

**2022- yil yanvar-avgust** — **54,2 %**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 0,7 % (2021- yil yanvar-avgust oylarida 0,9 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumani 14,5 % ni, 13,3 % Sho'rchi tumaniga to'g'ri kelib Termiz sh. 17,7 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida Viloyat o'sish sur'ati (111,9 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Sariosiyo (150,4 %), Termiz (143,8 %), Qumqo'rg'on (139,0 %), Jarqo'rg'on (132,8 %) tumanlarida  va Termiz sh. 114,1 % qayd etildi.*

## Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining Viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo‘rg‘on tumani 14,5 % ni, Sho‘rchi tumaniga to‘g‘ri kelib 13,3 % ni, Termiz sh. 17,7 % ni tashkil etdi.*




**1209,0** *mlrd. so‘m*
*2020- yil yanvar-avgust*

**1307,8** *mlrd. so‘m*
*2021- yil yanvar-avgust*

**1545,0** *mlrd. so‘m*
*2022- yil yanvar-avgust*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020- yil** **96,1 %**

**2021- yil** **105,9 %**

**2022- yil** **111,9 %**

## Surxondaryo viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Jarqo'rg'on tumaniga to'g'ri kelib 17,8 % ni, shuningdek, Denov tumani 9,1 % ni, Sherobod tumani 8,2 % ni, Termiz shahri esa 21,4 % ni tashkil etdi.*

### Surxondaryo viloyati

**2020- yil**
3091,0 mlrd. so'm
*2020- yil yanvar-avgust*

**2021- yil**
3474,7 mlrd. so'm
*2021- yil yanvar-avgust*

**2022- yil**
4203,0 mlrd. so'm
*2022- yil yanvar-avgust*



108,2 %
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-avgust*

105,6 %
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-avgust*

105,1 %
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-avgust*



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobigaTermiz shahri (4698,0 so‘m), Jarqo‘rg‘on (3274,0 ming so‘m),Termiz (3145,5 ming so‘m) hamda Sherobod (1706,2 so‘m) tumanlarida o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (1524,4 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Surxondaryo viloyati

2020- yil
**1170,3 ming so‘m**
*2020- yil yanvar-avgust*

2021- yil
**1289,7 ming so‘m**
*2021- yil yanvar-avgust*

2022- yil
**1524,4 ming so‘m**
*2022- yil yanvar-avgust*



01 — 2020- yil — 103,7 %
*2020- yil yanvar-avgust*

02 — 2021- yil — 103,5 %
*2021- yil yanvar-avgust*

03 — 2022- yil — 102,8 %
*2022- yil yanvar-avgust*

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Viloyat bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 560,4 ming so‘m bo‘lgani holda, Termiz shahrida – 1431,6 ming so‘mni, Termiz tumanida – 1247,7 ming so‘mni, Jarqo‘rg‘on tumanida – 980,3 ming so‘mni va Sho‘rchi tumanida – 936,9 ming so‘mni tashkil etdi.*

### Surxondaryo viloyati

**2020- yil**
457,7 ming so‘m
*2020- yil yanvar-avgust*

**2021- yil**
485,4 ming so‘m
*2021- yil yanvar-avgust*

**2022- yil**
560,4 ming so‘m
*2022- yil yanvar-avgust*



**2020- yil** 93,9 %
*2020- yil yanvar-avgust*

**2021- yil** 103,8 %
*2021- yil yanvar-avgust*

**2022- yil** 109,3 %
*2022- yil yanvar-avgust*

| | o‘sish sur’ati | ming so‘m |
|---|---|---|
| Sho‘rchi | 98,9 | 936,9 |
| Sherobod | 107,1 | 316,0 |
| Uzun | 85,2 | 303,6 |
| Termiz | 140,6 | 1247,7 |
| Sariosiyo | 147,2 | 424,5 |
| Oltinsoy | 93,2 | 466,0 |
| Muzrabot | 90,9 | 308,0 |
| Qiziriq | 84,0 | 273,6 |
| Qumqo‘rg‘on | 136,1 | 340,7 |
| Jarqo‘rg‘on | 129,9 | 980,3 |
| Denov | 95,7 | 435,1 |
| Boysun | 100,7 | 374,4 |
| Bandixon | 101,2 | 60,8 |
| Angor | 108,2 | 418,0 |
| Termiz sh. | 110,1 | 1431,6 |

## Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

*Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1627,9 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 38,7 % ni tashkil etdi.*




### Surxondaryo viloyati

**2020- yil**
**1348,9 mlrd. so‘m**
*2020- yil yanvar-avgust*

**2021- yil**
**1481,7 mlrd. so‘m**
*2021- yil yanvar-avgust*

**2022- yil**
**1627,9 mlrd. so‘m**
*2022- yil yanvar-avgust*



**43,6 %**
**2020- yil**
*2020- yil yanvar-avgust*

**42,6 %**
**2021- yil**
*2021- yil yanvar-avgust*

**38,5 %**
**2022- yil**
*2022- yil yanvar-avgust*

## Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

*Bugungi kunda viloyatda 4 756 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 830 tasi (ro‘yxatdan o‘tgan korxonalar umumiy sonining 17,5 % i) Termiz shahriga, 545 tasi (11,5 %) Denov tumaniga, 375 tasi (7,9 %) Sho‘rchi tumaniga, 319 tasi (6,7 %) Qumqo‘rg‘on tumaniga va 293 tasi (6,2 %) Termiz tumaniga to‘g‘ri kelmoqda.*




### Jami yangi tashkil etilgan

**2020- yil** — 1451 dona

**2021- yil** — 919 dona

**2022- yil** — 520 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 3847 dona

**2021- yil** — 4554 dona

**2022- yil** — 4 756 dona